

IJTIMOYIY NAZORAT, JAMOATCHILIK NAZORATI, FUQAROLIK NAZORATI TUSHUNCHALARINING O‘ZARO ALOQADORLIGI VA FARQI

Haydarov Obid Erkinovich

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti katta o‘qituvchisi
email:obidhaydarov@umail.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada nazorat tiziminig o‘ziga xos xususiyatlari, nazorat tizimini tashkil qiluvchi shakllari, ijtimoiy nazorat, jamoatchilik nazorati hamda fuqarolik jamiyati tushunchalarining o‘zaro aloqasi, nisbati va farqli tomonlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: nazorat tizimi, ijtimoiy nazorat, fuqarolik jamiyati, jamoatchilik nazorati, fuqarolik nazorati, huquiy davlat, fuqarolik madaniyati, siyosiy-huquiy madaniyat

INTERRELATION AND DIFFERENCES BETWEEN THE CONCEPTS OF SOCIAL CONTROL, PUBLIC CONTROL, AND CIVIC CONTROL

Abstract. This article analyzes the specific features of the control system, the forms that constitute the control system, as well as the interrelation, correlation, and differences between the concepts of social control, public control, and civil society.

Keywords: control system, social control, civil society, public control, civic control, rule of law, civic culture, political and legal culture.

ВЗАИМОСВЯЗЬ И РАЗЛИЧИЯ МЕЖДУ ПОНЯТИЯМИ СОЦИАЛЬНОГО КОНТРОЛЯ, ОБЩЕСТВЕННОГО КОНТРОЛЯ И ГРАЖДАНСКОГО КОНТРОЛЯ

Аннотация. В данной статье проанализированы специфические особенности системы контроля, формы, составляющие систему контроля, а также взаимосвязь, соотношение и различия между понятиями социального контроля, общественного контроля и гражданского общества.

Ключевые слова: система контроля, социальный контроль, гражданское общество, общественный контроль, гражданский контроль, правовое государство, гражданская культура, политико-правовая культура.

Fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayoni ko‘plab o‘ziga xos tomonlardan iborat. Ma’lumki fuqarolik jamiyati ijtimoiy faol, siyosiy-huquiy madaniyati yuqori fuqarolar bo‘lishini ham taqozo etadi. Bunda fuqarolar davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari ustidan jamoatchilik nazoratini faol ravishda amalga oshiradilar. Istilohda ana shu jarayonni amalga oshirish bilan bog‘liq bir qancha tushunchlardan foydalanamizki ularning mazmun-mohiyatini va bir-biridan farqli tomonlarini aniqlab olishimiz kerak.

“Hozirgi kunda matbuotda va ilmiy adabiyotlarda “jamoatchilik nazorati”, “ijtimoiy nazorat”, “fuqarolik nazorati” kabi atamalar ishlatilmoqda. Tahlil shuni ko‘rsatmoqdaki, mazkur atamalar ko‘pincha sinonim sifatida va ba’zan noo‘rin

qo'llanilmoqda [1]. Haqiqatdan ham bu uch tushuncha mazmun-jihatdan bir-biriga yaqin. Lekin, shu bilan birga ushbu tushunchalar anglatadigan ma'no bir-biridan farq qiladi. Bularidan birinchisi ijtimoiy nazorat tushunchasi. "Fuqarolik jamiyatining asosiy vazifasi ijtimoiy reguliyator bo'lgan huquq va axloq normalariga rioya etilishini nazorat qilishdan iborat bo'lganligi uchun ijtimoiy nazorat jarayonini shakllantirish va rivojlantirish muammolarini o'rganish bugungi kunning dolzarb mavzusi hisoblanadi" [2]. "Ijtimoiy nazorat" tushunchasi hajm jihatdan ancha keng tushuncha. Ushbu tushuncha ham davlat nazoratini ham jamiyat nazoratini o'z ichiga oladi. Ma'lumki davlatning ko'plab davlat nazoratini amalga oshiruvchi organlari mavjud. Jamiyat nazorati esa bu fuqarolar tomonidan ma'lum belgilab qo'yilgan tartib asosida amalga oshiriladigan nazoratidir.

Davlat va jamiyat nazoratidan iborat bo'lgan nazorat tizimini ijtimoiy nazorat tushunchasi bilan ifodalash mumkin. Ijtimoiy nazoratni keng va tor ma'noda, ya'ni keng ma'noda ijtimoiy nazorat, tor ma'noda jamoatchilik nazorati deb tushunish mumkin [2]. Ijtimoiy nazorat jamoatchilik nazoratini ham qamrab oladi, lekin ilmiy tadqiqotlarda zarurat bo'lganda, aniqlik kiritish maqsadida ularni farq qila bilish kerak. Jamoatchilik nazorati deganda, fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan amalga oshiriladigan nazorat tushuniladi. "Jamoatchilik nazorati" va "ijtimoiy nazorat" tushunchalari o'rtasidagi farq avvalo, shundaki, "ijtimoiy nazorat" tushunchasi mazmun doirasiga ko'ra "jamoatchilik nazorati" tushunchasidan kengroq. Bu tushuncha tarkibiga "jamoatchilik nazorati" tushunchasidan tashqari davlat nazorati va fuqarolik nazorati ham kiradi. Chunki ular ham mohiyatan ijtimoiy nazoratning ko'rinishlaridir.

Keyingi tushuncha bu "jamoatchilik nazorati" tushunchasi. Jamoatchilik nazoratiga turli-tuman ta'riflar berilgan. Jamoatchilik nazorati uzoq tarixga ega bo'lsa ham, uni ilmiy tushuncha sifatida fanga ijtimoiy psixologiyaning asoschilaridan bo'lgan fransuz olimi G.Tard olib kirdi. Uning talqinida mazkur tushuncha jinoyatchining xulq-atvorini me'yoriy qoidalar doirasiga qaytarish uchun qo'llaniladigan usullar majmuini ifodalagan. Jamoatchilik nazoratining asosiy xususiyatlarini qamrab oladigan quyidagicha ta'rifdan foydalanish o'rinliroq bo'ladi: "Jamoatchilik nazorati — jamoat birlashmalari tomonidan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining amaldagi qonunlarga mosligini aniqlash va baholash bo'yicha yuritadigan faoliyat" [1]. O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq jamoatchilik nazoratining subyektlari sifatida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, shuningdek qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro'yxatga olingan nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari jamoatchilik belgilab qo'yilgan. Jamoatchilik nazorati jamoatchilik kengashlari, komissiyalari va boshqa jamoatchilik tashkiliy tuzilmalari tomonidan ham qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirilishi mumkin, deb ta'kidlanadi Qonunning 3-moddasida [3].

"Ijtimoiy nazorat" hamda "jamoatchilik nazorati" tushunchalari bilan turdosh keyingi tushuncha bu "fuqarolik nazorati" tushunchasidir. "Jamoatchilik nazorati" va "fuqarolik nazorati" tushunchalari bir-biriga juda yaqinlay tuyuladi. Aslida ular

oʻrtasida umumiyliklar bilan bir qatorda jiddiy tafovutlar ham mavjud. Ular oʻrtasidagi tafovutlar avvalo shundan iboratki, harbiy yuristlarning fikriga koʻra, fuqarolik nazorati armiya faoliyati ustidan jamoat tashkilotlari olib borayotgan nazoratni anglatadi. Masalan, bizning mamlakatimizda Mudofaa vazirligi qoshida tuzilgan Jamoatchilik kengashi ana shunday nazoratni amalga oshiradi. Shu maʼnoda fuqarolik nazorati noharbiy tashkilotlar tomonidan Qurolli kuchlar faoliyatining mamlakatimiz qonunlariga mosligi va maqsadga muvofiqligini nazorat qilishni bildiradi [1]. Ikkinchidan, fuqarolik nazorati alohida shaxslar tomonidan Qurolli kuchlar faoliyatining Konstitutsiyaga, xalqaro shartnomalarga mosligi, shuningdek, Qurolli kuchlar tizimidagi ijtimoiy masalalarning huquqiy meʼyorlarga mosligi ustidan oʻtkaziladigan nazoratni ham bildiradi. “Jamoatchilik nazorati” va “fuqarolik nazorati” tushunchalari oʻrtasidagi tafovut xuddi mana shu oʻrinda koʻrinadi. Fuqarolik nazoratini hech bir jamoat birlashmasiga aʼzo boʻlmagan fuqaro ham amalga oshirishi mumkin. Jamoatchilik nazoratini esa alohida fuqarolar emas, jamoat birlashmalari va ularning vakillari amalga oshiradi.

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 36-moddasida fuqarolar davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish huquqlari mustahkamlab qoʻyilgan [4].

Shu bilan birga tadqiqotlarda jamoatchilik nazorati va fuqarolik nazoratini aynan tushunishga oid qarashlar ham bor. Xuddi shunday yondoshuv ijtimoiy nazorat va jamoatchilik nazoratini aynan deb tushunishda ham koʻrinadi. Bizningcha bu tushunchalar qoʻllash oʻrniga qarab bir-biridan maʼlum maʼnoda farq qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Фуқаролик жамияти (дарслик лойиҳаси): 2016. Ziyonet.uz.
2. Nabiev F.X. Ijtimoiy nazorat. Monografiya. – Samarqand: 2016 y.
3. Haydarov O. E., Qoraboyev S. M. YANGI OʻZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI MAʼNAVY TARAQQIYOT MANBAI SIFATIDA //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 16. – C. 9-12.
4. Haydarov O. E. JAMOATCHILIK NAZORATI TUSHUNCHASI TARIXIDAN //Научный Фокус. – 2023. – T. 1. – №. 7. – C. 1173-1176.
5. Qoraboyev S. M. et al. JAMOATCHILIK TINGLOVI–JAMOATCHILIK NAZORATINI AMALGA OSHIRISH SHAKLI SIFATIDA //AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 1174-1176.
6. Эркинович Х. О. ЖАМОАТЧИЛИК НАЗОРАТИ–МАҲАЛЛА ИНСТИТУТИНИНГ МУҲИМ ЙЎНАЛИШИ //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 11. – №. 4. – C. 135-139.
7. Hamidovich N. F., Erkinovich H. O. The Role Of “Honesty Vaccine” In AntiCorruption Prevention //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2020. – T. 2. – №. 07. – C. 52-61.